

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY HAYOTI VA FAOLIYATINING O‘RGANILISHI

Dinora Eshboyeva,

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi

dinoraeshboyeva23@gmail.com

Annotatsiya: maqolada jadidchilik harakatining qatnashchisi, o‘z davrining buyuk ma’rifatparvari, yozuvchi, noshir Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyatiga oid yozilgan ilmiy ishlar va asarlar, ularning ahamiyati aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudi, Hoji Muin, Laziz Azizzoda, Sadridin Ayniy, Begali Qosimov, Sirojiddin Ahmedov, Adib Xolid.

XX asr jadidchilik harakatining yirik namoyondasi, tom ma’noda “Turkiston jadidlarining otasi”, publitsist, yozuvchi Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyati har bir yosh avlod uchun ibratlidir. Mahmudxo‘ja Behbudi yoshlarning ilmi bo‘lishi, xalqni ma’rifatli qilish, mustamlakachilikdan qutulish va mustaqil davlat barpo etish uchun kurashdi. Uning asarlarida kishilarning ilmi bo‘lishi kerakligi, Turkiston xalqi ilmsiz qoloqlik, jaholat botqog‘ida qolishi mumkinligi ochib berilgan. U har bir insonni ma’rifatli bo‘lishga da’vat etgan. Mahmudxo‘ja Behbudi o‘z davrining taniqli jadidchilaridan bo‘lganligidan u haqidagi dastlabki ilmiy ish va asarlar o‘sha davrdanoq yozila boshlangan. Behbudiyning zamondoshi Hoji Muinning Behbudi haqidagi ilmiy ishida shunday deyiladi: “Behbudi afandi Turkistonda boshlab qo‘lig‘a qalam olib, xalqning taraqqiy va tolesi uchun foydali maqolalar yozg‘on buyuk rahbarimiz edi. Behbudi afandi Turkistonda yangi maktablar uchun boshlab alifbo va jug‘rofiya kitoblari yozg‘on ulug‘ ustoz va

murshidimiz edi¹". Ushbu maqolada Behbudiyning tabiiy o'lim bilan emas, balki zolim mustamlakachilar tomonidan o'ldirilganligi ham qayd etiladi. Maqolada muallifning Behbudiy haqida samimiy fikrlari va Behbudiy bilan bo'lib o'tgan voqealar batafsil aks ettirilgan. Hoji Muin boshqa ilmiy ishlarida Behbudiyning katta olim sifatida o'z raqiblarini matbuotda yoki yuzma-yuz mag'lub qilganligi haqida ham eslab o'tadi. Hoji Muinning Behbudiy haqida 1919-yil 20-iyunda "Mehnatkashlar tovushi" gazetasida, 1919-yil 20-iyulda "Ishtirokiyun" gazetasida nashr ettirilgan "Qadrnoshunoslik" maqolasi, 1920-yilda "Mehnatkashlar tovushi" gazetasida nashr ettirilgan "Buyuk ustozimiz Behbudiy afandi" maqolasi, 1922-yil 21-dekabrda "Turkiston" gazetasida nashr ettirilgan "Behbudiy muxlislariga ochiq xat" maqolasini yozadi. Hoji Muinning yo'qolgan asarlari qatorida Behbudiyning tarjimai holiga oid asarlar ham bo'lishi mumkin. Chunki muallifning ko'plab ilmiy ishlari "maqolangizda Behbudiy otini ko'p zikr qilayapsiz" deya nashr ettirilmagan, hatto uni millatchilikda ham ayblagan. Behbudiyga zamondosh olimlar qatorida Laziz Azizzodani ham ko'rishimiz mumkin. U o'z maqolalarida Behbudiy haqida shunday yozadi: "Behbudiy irodasining kuchliligi, muomalada favqulodda ustalig'i, dialiktligi, nazariyotchilig'i ila barobar amaliyotchilig'i, har ishni hayotdan olishlig'i va iqtisodg'a ahamiyat berishi ila o'z zamondoshlaridan ayrilib, o'ziga maxsus muhim bir o'run oladir. Ul o'zi Turkistonning eski madrasasidan chiqqan bir kishi bo'lg'on holda arab dorilfununlarini bitirib kelgan kishilarning qilmag'on xizmatlarini ado qilib ketdi". Ushbu samimiy so'zlar Behbudiyning ajoyib fazilatlar sohibi bo'lganligiga dalolat qilish bilan birgalikda vatanning kelajagi uchun qayg'urib, u uchun aharkat qilganligini ham ko'rsatadi. Muallif 1926-yilda: "Agar O'zbekistonda fan va madaniyatda Navoiy va Ulug'bekdan keyin uchinchi shaxsning nomini abadiylashtirish kerak bo'lsa, bunday yodgorlik, hech shubhasiz, Behbudiyga qo'yilmog'i lozim", deb aytgan edi. Bu ta'rifda Behbudiyning ulug'allomalar Navoiy va Ulug'bek bilan bir qatorda qo'yilishi hech shubhasiz uning

¹ Hoji Muin. Buyuk ustozimiz Behbudiy afandi. Mehnatkashlar tovushi gazetasi, 1920.

buyuk inson bo'lganligidan dalolat beradi. Mahmudxo'ja Behbudiy haqida zamondosh shoirlar she'rlar yozadilar. Ular qatorida Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon kabilarni ko'rishimiz mumkin. Sadridin Ayniy o'z she'rlarining izohida "Qimmatli adabiyaga ega bo'lmasalar ham qimmatli tarixiyadan xoli emaslar", deb yozadi. XXI asrda ham Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va faoliyati atroflicha o'rganilmoqda. Xususan, Begali Qosimov, Zaynobidin Abdurashidov, Nilufar Namozova, Ulug'bek Dolimov, Sirojiddin Ahmedov, Naim Karimov, Sherali Turdiyev, Halim Sayyid, Normurod Avazov, Zebo Ahrorova, Solih Qosimov, Ahmad Aliyev va boshqa olimlar Behbudiy haqida ilmiy ishlar va asalar yozmoqda. "Turkiston jadidchilik harakatining haqiqiy ma'nodagi asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiydir", deb yozadi Ulug'bek Dolimov. Ulug'bek Dolimov tomonidan 2010-yilda "Jahon adabiyoti" jurnalida "Jadidchilikning tamal toshi" maqolasi nashr ettiriladi. Ushbu sohada Begali Qosimovning ilmiy izlanishlari ulkan bo'lib, 2002-yilda "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik" asari, 1994-yilda "Maslakdoshlar" asari va bir qancha maqolalari nashr ettiriladi. Ushbu ilmiy ishlar orqali Behbudiyning hayoti va faoliyati haqida yorqinroq va kengroq ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Begali Qosimov asarlarining ilmiy ahamiyati shundaki, muallif har bir ma'lumotni ishonchli dalil asosida isbotlab beradi. Shuningdek, har bir ma'lumotni taqdim etishda xolis va haqqoniylik asosida yondoshadi. Sirojiddin Ahmedovning ham ilmiy ishlari Behbudiyning hayotini o'rganishda muhim manbalar qatorida turadi. U o'z izlanishlari orqali Behbudiyning tavallud topgan sanasi va joyini aniqlab, 1874-yil 30-yanvar payshanba kuni Samarqand shahri Yomini mahallasida tavallud topgani yozadi. Ammo Behbudiyga zamondosh olim Hoji Muin uning tavallud topgan joyi va sana quyidagicha keltiradi: 1875-yil 19-yanvar (hijriy 1291-yil 10-zulhijja) kuni Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida dunyoga keladi. Begali Qosimov ham yuqorida Hoji Muinning keltirgan fakti keltiradi. Shuningdek, Sirojiddin Ahmedov o'z fikrini kuchli dalillar asosida isbotlaydi.

Yevropada ham Behbudiyning ijodiga katta e'tibor berilib, nemis olimi

Ingeborg Baldauf, rus olimi Boris Pyaskovskiy, amerikalik olim Adib Xolid kabi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borildi va asarlar nashr ettirildi. 2001-yilda olimning “XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar” nashr ettiriladi. Adib Xolid o‘zining “O‘zbekistonning barpo bo‘lishi” asarida yaqin yuz yillardagi ajdodlarimiz: Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvar qori, Fayzulla Xo‘jayev kabi davlat va jamiyat arboblari haqida ma’lumotlar beradi. Muallif asarni yaratishda AQSh Kongressi kutubxonasida saqlanayotgan O‘rta Osiyoga oida arxiv materiallari, shuningdek, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Angliya va O‘zbekistondagi tarixiy materiallar foydalanadi. Adib Xolid Behbudiy haqida quyidagi gaplarni aytib o‘tadi: “Behbudiyning hayotiy tajribasi XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda vujudga kelganjadidchilik harakatining eng ko‘zga ko‘ringan siymosi bo‘lganligi bilan alohida ahamiyatga ega. U davrining yirik shaxsi bo‘lib, dunyoni o‘zidan oldingi avlod va zamondoshlaridan farqli ravishda anglay olgan hamda u vaqtda ularning tasavvuriga sig‘maydigan aloqa va tashkiliy shakllardan foydalana olgan”. Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyati hozirgi kunda har bir inson uchun o‘ziga xos ibrat bo‘la oladi. Uning asarlari va faoliyatiga oid ilmiy izlanishlar olib boorish xalqimiz uchun foydali va Behbudiyga ko‘rsatilgan hurmat ramzidir. Ushbu sohada ko‘plab tadqiqot ishlari olib borildi va hozirgi kunda ham olib borilmoqda, chunki Behbudiyning hayoti va faoliyatiga oid ochilmagan tarixiy ma’lumotlar bisyor. Bizning ilmi va ma’rifatli bo‘lishimiz, mustaqil va farovon davlatda yashashimiz, taraqqiy etgan davlatlardan ortda qolmasligimiz uchun bor kuch va g‘ayrati bilan harakat qilib, bu yo‘lda jonini ham ayamagan Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyati o‘rganish har bir yosh avlodning burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimov B. Maslakdoshlar. – Toshkent: Sharq, 1994.
2. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
3. Hoji Muin. Buyuk ustozimiz Behbudiy afandi. Mehnatkashlar tovushi gazetasi, 1920.
4. Zaynobidin Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
5. <https://tilvaadabiyot.uz/bosh-sahifa/product/nilufar-namozova-filologiya-fanlari-nomzodi-behbudiy-afandi-yiglamang>